



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

**BOSHLANG'ICH TA'LIMGA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARНИ  
TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY  
TENDENSIYALARI VA  
RIVOJLANISH OMILLARI**  
**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**  
**MATERIALLARI**



Buxoroga mutaxassis sifatida tashrif buyurishgan. Ular bosmaxona va nashriyot ishlariiga kirishib ketgan bo‘lsada, maosh pastligi, maishiy hayot og‘irligi va turli yuqumli kasalliklar tufayli 1922-yilda Buxoroni tark etishgan. 13 nafar harf teruvchidan 5 nafari Buxoroda yuqumli kasalliklardan vafot etgan.

Buxoroda yangi texnik vositalar bilan ta’minlangan bosmaxona va nashriyotda kitob, plakat, reklama e’lonlari, varaqo kabilar bosib chiqarish ko‘paydi. Ammo, bu respublika aholisining madaniy – ma’rifiy ehtiyojlarini to‘la qondira olmaganligi tufayli hukumat Qozon, Ufa, Orenburg kabi shaharlarda kitoblar

Ma’lumki BXSR va Germaniya o‘rtasida savdo – sotiq, madaniy- ma’rifiy aloqalar 1920-yillarda rivojlangan edi. Ayniqsa, Germaniya o‘quv yurtlariga buxorolik yoshlarni o‘qish uchun yuborishga alohida e’tibor qaratilgandi. Buxorolik talabalar Germaniyadagi texnik yangiliklar bilan tanishib, “Texnika va biz” ruknida o‘zlarining “Ko‘mak” jurnallarida maxsus maqolalar chop ettirdilar. Hukumat rahbarlari talabalar holidan xabar olish maqsadida Germaniyaga safarlar qilar ekanlar, 1922 –yilda shunday safarlardan birida ushbu davlatdan Buxoroga musulmoncha harf terish mashinasi va unga tegishli bo‘lgan asbob – uskunalar hamda texnik vositalar ham olib kelishdi.<sup>46</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ernazarov.F.A. XIX- asr oxiri – XX-asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. ilm. dar. olish uchun dis.avtoreferati. –Toshkent, 2005. –B. 16.
2. Orziyev M. Z. XIX- asr oxiri – XX asr birinchi choragida Buxoroda bosmaxona, nashriyot va matbuot ishi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2020. – B. 12-13.
3. Rasulov A. Turkiston va Volgabo‘yi, Uraloldi xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar. – T. “Universitet,” 2005. – B.- 188- 189- 190-191.

## BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ARIFMETIK AMALLARNI QO‘LLASHUDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

*F. M. Qosimov, BuxDU dotsenti  
M. F. Ibrohimova, BuxDU magistranti*

**Annotatsiya.** Bu tezisda boshlang‘ich sinf matematika darslarini online tashkil qilishda ta’lim texnologiyalardan foydalanish haqida ma’lumot keltirilgan hamda turli xil o‘yinlardan online foydalanish haqida ko‘rsatmalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, matematika, arifmetika, charxpalak, boshlang‘ich ta’lim.

**Annotation.** This thesis provides information on the use of educational technologies in the organization of online mathematics lessons in primary school, as well as instructions on the use of various games online.

**Key words:** integration, mathematics, arithmetic, diagram, primary education.

**Аннотация.** Этот тезис предоставляет в использовании технологий в создании классов математики старшего класса в Интернете и инструкциям показывать в Интернете использование различных игры.

**Ключевые слова:** интеграция, математика, арифметик, диаграмма, начальное образование.

<sup>46</sup> Hayitov Sh; Rahmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya; hamkorlikning tarixiy lavhalari. –T.: Fan; 2004.- B.44.

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika darslarini tashkil qilganda o‘quvchilarning fanga qiziqishini orttirish muhim sanaladi. Koronavirus infeksiyasi tufayli joriy qilingan karantin sababli dars berish jarayonida ko‘plab muammolar kelib chiqmoqda. Bu ayniqsa, arifmetik amallarni o‘rgatish bilan bog‘liq holda o‘qituvchilarga ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bunday sharoitda, bazi o‘quvchilar uyidagi insonlarning sog‘ligini inobatga olinib, darsga online qatnashib kelmoqda. O‘quvchilar uchun online maktab loyihasining o‘zi darslikni o‘zlashtirishi uchun yetarli emas. Ular qo‘srimcha topshiriqlarni bajarishlari kerak. Ammo ular jamoada o‘qimayotganliklari sababli o‘qishga qiziqishi kamayadi. Aynan shunday paytda matematika o‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim sanaladi. Savol tug‘iladi? Qanday texnologiyalar samarali va qanday qilib online qo‘llash mumkin?

“Charxpalak” metodi. “Charxpalak” texnologiyasidan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo‘lim tugatilganidan keyin, o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Mashg‘ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo‘ladi. Qolaversa, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham asqotadi.

Ta’limiy o‘yin: “Bo‘lakdan butun”.

Har bir guruhga bo‘laklangan mashina va ko‘ylak detallari tarqoq holda doskada beriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan misollarni yechib, o‘z detallarini topib butun modelni yaratishlari kerak. Tez va aniq harakatlangan guruh o‘z modelini to‘liq xatosiz butun detallarini to‘plasa g‘olib hisoblanadi.

Quyidagi topshiriqdagi boshqotirma bo‘yicha soat sirti quyidagicha bo‘linganda har bir bo‘lakdagi sonlar yig‘indisi bir xil, ya`ni 13 ga teng bo‘ladi:


Bu boshqotirma yechimini topishni o‘yin shaklida tashkil etish mumkin. Buning uchun o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linib, har bir guruh o‘quvchilari oq qog‘ozga soat chizib, uning sirtini 6 bo‘lakka bo‘ladilar va sonlar yig‘indisi bir xilligi topiladi.

Sardorlar o‘z ishlarini doskada namoyish etib, nechta o‘quvchi to‘g‘ri bajarganligini aytadilar. Bu o‘yin «Kim tez topadi?» deb nomlanib, birinchi bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

1-sinf o‘quvchilari uchun bunday paytda matematik online o‘yinlar tashkil qilish maqlul. Masalan, kompyuter texnologiyasidan foydalanib o‘yin dasturlarini tuzish va ularni telegram tarmog‘i orqali o‘quvchilar jamoasiga o‘ynash yaxshi natija beradi. 1-sinf o‘quvchilari uchun quyidagi ko‘rinishdagi topshiriqlarni berish muhim sanaladi:

Intensive arifmetika o‘yini.  $20+35$ ;  $35+32$ ;  $43+12$ ;  $4+8$ ; bunday ko‘rinishdagi topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilarga 30 soniya vaqt beriladi. Javob to‘g‘ri berilsa o‘yin davom etaveradi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning matematik tezkorligi oshib boradi.

Matematik musoboqa o‘yini. Bu o‘yinda o‘tilgan darslarga oid topshiriqlardan tuzilgan savollar beriladi. Musoboqa telegram tarmog‘ida ma’lum bir vaqtida tashkil



qilinadi. O‘yin g‘olibi kunning matematika qiroli hisoblanadi. O‘yin boshlanadigan vaqtida o‘qituvchi matematik topshiriqlarni telegram guruhiga tashlaydi. O‘quvchilar esa topshiriqlarni bajarib, o‘qituvchining telegram tarmog‘iga tashlaydi. 1-bo‘lib topshiriqlarni to‘g‘ri bajargan o‘quvchi g‘olib sanaladi. Barcha o‘yin ishtirokchilari o‘yin yakunlangandan so‘ng to‘g‘ri javoblar va arifmetik misollarni yechish texnologiyasi telegram guruhiga tashlanib e’lon qilinadi. G‘olib ham e’lon qilinadi va kunning matematika qiroli hisoblanadi.

### 1-Topshiriq. Misollarni yeching.

$$1) 3400+1200 \quad 2) 8900-7500$$

$$3) (510-160)+(350-130) \quad 4) (480+500)-(630-170)$$

2-topshiriq. Ifodani qiyomatini toping: a)  $18:6+45:3-5*(91-89)$  b)  $64:8+9:9-63:7$

3-topshiriq. Do‘konda 1200 ta non keltirildi. Tushgacha olib keltingan 3 marta kam, tushdan keyin qolgan non sotildi. Tushdan keyin qancha non sotildi?

Berilgan topshiriqlar o‘quvchilar jamoasiga tashlanadi. Barcha javoblar qabul qilingandan keyin, o‘qituvchi misollarning yechish metodikasini to‘g‘ri javoblarni telegram guruhida ma’lum qiladi.

Hozirda boshlang‘ich sinflarda ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyati kengayib bormoqda. 1-sinf o‘quvchilari uchun misolni “Klaster” usulida yechish namunasini ko‘rsatish, o‘quvchilarning bilim saviyasini yanada oshiradi. Masalan,  $11 - 6 = \square$


“To‘g‘risini top o‘yini”. Bu o‘yinga ko‘ra o‘quvchilar misolni yechib to‘g‘ri javobni topib, to‘g‘ri chiziqqa qarata chiziq tortishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘yinni arifmetik amallarning barcha turini o‘rganishda qo‘llash yaxshi samara beradi.

“Keyingisini top” o‘yini. Bu o‘yinning sharti shundan iboratki 1-yechilgan misolning javobi bilan boshlanuvchi misolni yechishi kerak. O‘yin shu qoida orqali misollar tugaguniga qadar davom etadi. Bu o‘yinni tuzishda o‘qituvchi oldindan tayyoragarlik ko‘radi. Taqdimot slaydi yoki oldindan tayyorlab keltingan material orqali o‘yinga start beriladi. Masalan:

$$15-7=24-6=8+16=18:2=9*4=$$

O‘quvchi 1-misolni yechadi  $15-7=8$ ; 8 bilan boshlanuvchi misolni yechadi  $8+16=24$  o‘yin shu tarzda davom etadi. O‘yin oxirida birinchi bo‘lib to‘g‘ri bajargan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘yin mazmunidagi misollardan foydalanish o‘quvchini fanga qiziqishini yanada orttiradi. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.



|    |    |  |   |
|----|----|--|---|
|    | 8  |  | 4 |
|    | -5 |  |   |
| v2 | 6  |  | 2 |
|    | +3 |  |   |
|    | 7  |  | 6 |
|    | +1 |  |   |
|    | 4  |  | 8 |
|    | +2 |  |   |
|    | 9  |  | 9 |
|    | -7 |  |   |
|    | 2  |  | 3 |
|    | +2 |  |   |

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Qosimov, M.Hakimova, N.Safarova. Boshlang‘ich sinflarda algebra elementlarini o‘rgatish. –Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2015.
2. Ibrohimova M. Improving integration in teaching arithmetic practices in primary school mathematics. Учёный XXI Века ISSN 2020
3. M.Ibrohimova. Boshlang‘ich sinf matematika darslarini online o‘tishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O‘zbekistonda uchinchi renessans poydevorini mustahkamlashda yoshlarning o‘rni va roli 2020, 21-23бетлар.

## **BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*U.Sh. Tog‘ayeva, BuxDU doktoranti  
G.N. Roziqova, BuxDU guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili darslarida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi, ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** axborot, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnik vosita, didaktik vosita, pedagogik mahorat, axborotli vosita.

**Annotation.** This article describes the importance of the use of pedagogical technologies in the teaching of mother tongue.

**Keys words:** information, technology, pedagogical technology, technical tool, didactic tool, pedagogical skills, information tool.

**Аннотация.** В статье обсуждается важность использования педагогических технологий на уроках родного языка.

**Ключевые слова:** информация, технологии, педагогическая технология, технический инструмент, дидактический инструмент, педагогические навыки, информационный инструмент.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi zamон axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rin egallamoqda.

O‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda. Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo‘llash, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi o‘rnini belgilash, unga yangicha yondoshuvi, yangicha munosabatni ta’minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir. Ona tili darslarida musobaqa darslarini o‘tkazishdan maqsad o‘quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko‘rish, o‘zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Samarali dars shakllaridan biri bo‘lgan musobaqa darsi til mashg‘ulotlarining qiziqrarli o‘tishi va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi vositadir. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to‘g‘ri yo‘ki noto‘g‘riligi haqida va o‘z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o‘rgatadi. O‘zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to‘g‘ri va ma’qul yechimga kelinadi. O‘quvchi bahs - munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o‘z “men”ini anglab yetadi, o‘z